

SHAXSGA QARSHI JINOYATLARNING UMUMIY TAVSIFI VA TURLARI

Karimov Islom Umidullo o'g'li

IIV Surxondaryo akademik litseyi

Huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi

Kalit so'zlar:

Shaxsga qarshi jinoyatlarni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limidan o'rin olishi respublikamizda aynan shaxsning hayoti, sog'lig'i, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat sifatida himoya qilishning konseptual g'oyalaridan kelib chiqadi. Mazkur konsepsiyaning o'zi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi", – degan qoidaga asoslangan. Shundan kelib chiqqan holda, shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar deganda, shaxsning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda oila, yoshlar va voyaga yetmaganlarning manfaatlarini muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlar tushuniladi.

Hayotga qarshi jinoyatlar – inson hayotiga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Hayotga qarshi jinoyatlarning *turdosh obyekti* boshqa shaxs hayotini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Hayotga qarshi jinoyatlarning *obyektiv tomoni* qonunga xilof ravishda boshqa shaxsning hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi. Odatda, inson hayotidan mahrum qilish jismoniy ta'sir o'tkazish orqali sodir etiladi, biroq u ruhiy ta'sir (qo'rqitish)

o'tkazish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Xususan, bunda harakat huquqqa xilof ravishda boshqa shaxs hayotidan mahrum qilishga olib keluvchi jabrlanuvchiga bevosita jismoniy (masalan, har qanday qurol, ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish va h.k.) yoki ruhiy (og'ir kasallangan shaxsga ruhiy jarohat yetkazish yo'li bilan hayotidan mahrum qilish) ta'sir o'tkazishda ifodalanadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar deganda, inson organlari yoki organizmi to'qimalari anatomik butunligi yoki ular fiziologik funksiyasining tashqi ta'sir oqibatida buzilishi yoxud insonga jismoniy jihatdan og'riq beruvchi, shuningdek uning ruhiyati buzilishiga olib kelgan qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi huquqqa xilof qilmishlar tushuniladi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning *turdosh obyekti* boshqa shaxsning sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar *obyektiv tomondan* harakat yoki harakatsizlikda sodir etilishi mumkin. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar tuzilish xususiyatiga ko'ra moddiy tarkibli jinoyatlar hisoblanadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning sodir etilish usullari turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan: jismoniy (mexanik, termik, elektrik va h.k.), inson organizmiga kimyoviy yoki faol biologik vositalarni kiritish orqali (turli kislotalar, zaharli moddalar, gazlar va hokazo)dan foydalanish va ruhiy ta'sir ko'rsatish kabi usullarga bo'linadi.

Badanga yetkazilgan shikastning xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash, odatda, tibbiyot organlari vakolatiga taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining badanga yetkazilgan shikast og'irligini sud-tibbiy yo'sinda belgilash qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning *subyektiv tomoni* aybning qasd (JK 104–110-m.) yoki ehtiyotsizlik (JK 111-m.) shaklida ifodalanadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning *subyekti* 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar uchun (JK 104–106-m.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan.

Hayotga qarshi jinoyatlar moddiy tarkibli bo'lib, uni tugallangan deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim (faqat istisno tariqasida Jinoyat kodeksi 103 va 103¹-moddalarida o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish tugallangan qilmish sifatida belgilangan).

Hayotga qarshi jinoyatlarning *subyektiv tomoni* qasd (JK 97–101-m., 103–103¹-m.) yoki ehtiyotsizlik (JK 102-m.)da ifodalanishi mumkin.

Hayotga qarshi jinoyatlarning *subyekt*i 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar uchun (JK 97, 98-m.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan. Hayotga qarshi ayrim jinoyatlarning subyektlari maxsus belgilarga ega. Masalan, chaqaloqning onasi (JK 99-m.).

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning turlari:

1. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m.)
2. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JKm.)
3. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 106-m.)
4. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 107-m.)
5. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish
6. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m.)
7. Qiynash (JK 110-m.)
8. Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish (JK 111-m.).

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar deganda, shaxslarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga real xavf tug'diruvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan, ijtimoiy xavfli qilmishlar tushuniladi.

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning turdosh obyekti shaxslarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 112–115-m.) yoki harakatsizlikda (JK 117-m.) ifodalanadi. Ayrim turdagi jinoyatlar (JK 1151, 116-m.) ham harakat, ham harakatsizlikda sodir etiladi.

Mazkur jinoyatlar qonunda tuzilishiga koʻra formal (JK 112, 113-m. 1-q., 1151-m.) yoki moddiy (JK 115, 116, 117-m.) tarkibli jinoyatlar sifatida koʻrsatilgan.

Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlar subyektiv tomondan aybning qasd (JK 112–1151, 117-m.) va ehtiyotsizlik (JK 116-m.) shaklida ifodalanadi.

Mazkur jinoyatlarning subyektlari 16 yoshga toʻlgan aqli raso jismoniy shaxslar boʻlishi mumkin. Baʼzi jinoyatlarning subyektlari maxsus belgilarga ega. Masalan, shifokor akusher yoki ginekolog (JK 114-m.), muayyan kasbga ega boʻlgan shaxs (JK 116-m.) va boshqalar.

Odam oʻldirish – huquqqa xilof ravishda, qasddan boshqa kishini hayotdan mahrum qilishdir.

Odam oʻldirishning obyekti – boshqa odamning hayoti xavfsizligini taʼminlash boʻyicha ijtimoiy munosabatlardir. Hayotdan ixtiyoriy ketish (suiqasd) yoxud oʻz hayotiga suiqasd qilish odam oʻldirish jinoyatining tarkibini tashkil etmaydi.

Ayrim sabablarga koʻra inson oʻzining hayotiga chek qoʻyishga qaror qilganida uning xohish-irodasiga bogʻliq boʻlmagan holatlarga koʻra oʻlim roʻy bermasligi mumkin (oʻzini osgan vaqtda arqonning uzilib ketishi, zaharning taʼsir qilmasligi, begona shaxsning qutqarib qolishi va h.k.). oʻlim yuz bermaganiga qaramay oʻz joniga qasd qilganlik jamoatchilik tomonidan qoralanadi. Chunki bunday hodisa inson axloqiga yotdir va u shaxsning ojizligi, irodasi boʻshligidan dalolat beradi, lekin jinoyat hisoblanmaydi. Odam oʻldirishning obyekti nafaqat odamning hayotiy biologik jarayoni, balki odam uchun eng qimmatli boʻlgan neʼmat bilan bemaol foydalanishi, hayoti bilan ifodalanadigan ijtimoiy munosabat ham boʻladi.

Odam oʻldirishning bevosita obyekti boshqa kishining hayoti hisoblanadi. Yoshidan, sogʻligi yoki yashash tarzidan qatʼi nazar har qanday kishining hayoti jinoyat qonuni bilan qoʻriqlanadi. Shu sababli chaqaloq, keksa, sogʻlom yoki umidsiz,

og'ir kasal odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakat odam o'ldirish deb hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda yuridik adabiyotlarda evtanaziya, ya'ni shaxsni o'zining roziligi bilan hayotidan mahrum etganlik uchun javobgarlik masalasi bo'yicha munozaralar avj olmoqda.

Bugungi kunda 40 dan oshiq dunyo mamlakatlarida passiv evtanaziya qonun bilan ruxsat berilgan. Masalan, Avstraliyada 10 yildan beri o'lim yoqasida turgan bemorning xohishi bilan sun'iy hayotni saqlab turish apparatini to'xtatishga yo'l qo'yilmoqda. O'ziga xos yo'lni Shveytsariya tanlagan. Evtanaziya uchun jinoiy javobgarlikni qonunda saqlab qolgan holda, umidsiz qolgan bemorga ushbu davlat hokimiyati maxsus vrachlar ishtirokida maxsus dori berib bemorning o'limi yuz berishida ishtirok etishiga imkon berilgan. Fransiya ham evtanaziyani qonunlashtirish harakatlarini boshlagan.

Evtanaziyani ma'qullovchi va uni qoralovchilar bo'lishiga qaramasdan, uni qonunlashtirishga ehtiyot bo'lish kerak, chunki insonga hayot xudo tomonidan ato etiladi, uni qaytib olishga faqatgina uning o'zi haqlidir, degan fikrlar ham mavjud. Bundan tashqari, dorishunoslik yutuqlaridan foydalanib, asta-sekin inson hayotiga chek qo'yadigan vositalar yaratilishidan ham umid qilinmoqda. Ammo inson tabiati, uning a'zolari faoliyati hali shifokorlar tomonidan to'liq o'rganilmaganligini e'tirof etish lozim. Ba'zan tuzalishiga hech qanday umid bo'lmagan kasal sog'ayadi va to'la hayotiy faoliyatini yana davom ettiradi.

Sun'iy homila tushirish (abort) bilan bog'liq jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun inson hayotining boshlanishini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham, bu savolga javob topish murakkab vazifadir.

Shu bois qaysi vaqtdan boshlab homila yoki yangi tug'ilgan bola ushbu jinoyatning obyekti bo'ladi? Tug'ilgan vaqtdanmi yoki ona qornida homila paydo bo'lgan vaqtdanmi degan savol tug'iladi. So'z uning shaxs sifatida tan olinishi va jinoyat qonunida javobgarlik belgilangan jinoyatning obyekti bo'lishi mumkinligi haqida bormoqda.

Yuridik adabiyotlarda bu borada qarama-qarshi qarashlar mavjud. Ayrim mualliflar inson hayotining boshlanish payti deb go‘dakning nafas ola boshlashi yoki bolaning ona qornidan to‘liq ajralib chiqish vaqtini hisoblaydilar. Boshqalar esa homilaning yetarli darajada rivojlanib, ona qornida homila tarzida hayot uchun barcha zaruriy sifatlarga ega bo‘lganligini tasdiqlovchi jismoniy to‘lqoqning boshlanishi bilan belgilaydilar ². Bizningcha, bu qarashlar unchalik to‘g‘ri emas, chunki jismoniy to‘lqoqning boshlanishi, tug‘ish jarayoni- ning boshlanishidir. Bu vaqtda homilaga zarar yetkazishni homilador ayolning sog‘ligiga zarar yetkazish deb qaramoq kerak va bu qilmish Jinoyat kodeksidagi shaxsning sog‘ligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni ko‘zda tutuvchi bobining tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Hayotning boshlanishi chaqaloq tanasining biror qismi ona qornidan tashqarida paydo bo‘lishi bilan bog‘liq deb hisoblagan mualliflarning fikri ancha to‘g‘ridir.

Aynan shu vaqtdan boshlab bola atrofdagilar tomonidan homila emas, balki inson, shaxs sifatida qabul qilinadi. Shu munosabat bilan, chaqaloq tanasining biror qismi to‘lg‘oq jarayonida ona qornidan tashqarida paydo bo‘lgan vaqtni hayotning boshlanishi deb hisoblash ma’quldir.

Bu muammo bo‘yicha fikrlarning xilma-xilligi, ularning bahsli ekanligi, jismoniy va tibbiy mezonlarga asoslangan holda hayot boshlanishining obyektiv belgilarini aniqlashga qaratilgandir. Lekin bunday belgilarni aniqlash mumkin emas. Hayot to‘xtovsiz jarayondir. Homilaning paydo bo‘lishi va sekin-asta rivojlanib, chaqaloq tug‘ilishi bilan uning ko‘rinishi, shakli o‘zgaradi, xolos. Shuning uchun sud- tibbiyot ekspertizasining xulosasi hayotning boshlanishi haqidagi masalani hal qila olmaydi. Buni aniqlashda subyektning qasдини aniqlash zarur, ya’ni qasdi homilaga emas, balki shaxsga ziyon yetkazishidadir.

Shaxsga qarshi jinoyatlar jinoyat huquqi tizimida eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu turdagi jinoyatlar insonning eng muqaddas huquq va erkinliklariga – hayoti, sog‘lig‘i, shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga bevosita tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlardir.

Ushbu jinoyatlarni o'rganish, tahlil qilish va huquqiy baholash amaldagi qonunchilikni to'g'ri qo'llash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Shaxsga qarshi jinoyatlar Jinoyat kodeksida alohida bobda tartibga solingan bo'lib, ular quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- **Hayotga qarshi jinoyatlar** (masalan, qasddan odam o'ldirish, ehtiyotsizlik oqibatida odam o'ldirish);
- **Sog'liq va badanga shikast yetkazishga oid jinoyatlar** (og'ir, o'rtacha og'ir va yengil shikast yetkazish);
- **Shaxsiy erkinlik va daxlsizlikka qarshi jinoyatlar** (masalan, noqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, qiynoq, tahdid qilish);
- **Jinsiy daxlsizlik va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar** (zo'rlash, nomusga tegish, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy aloqada bo'lish);
- **Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar** (tuhmat, haqorat).

Mazkur jinoyatlar sodir etilganida nafaqat jabrlanuvchiga, balki jamiyat va davlatga ham jiddiy zarar yetkaziladi. Shu bois, jinoyat huquqida bunday jinoyatlar uchun og'ir va o'rtacha og'ir jazo choralarini belgilash nazarda tutilgan.

Shaxsga qarshi jinoyatlarning jinoyat huquqidagi o'rni nafaqat ularning og'irligidan, balki inson huquqlarining xalqaro darajada e'tirof etilganligi bilan ham izohlanadi. Xususan, BMTning Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlarda ham inson hayoti, sha'ni va daxlsizligi eng muhim qadriyat sifatida belgilangan.

Ushbu mavzuni chuqur o'rganish orqali o'quvchi (yoki tinglovchi) quyidagi ko'nikma va bilimlarga ega bo'ladi:

- Shaxsga qarshi jinoyatlarning huquqiy mohiyatini tahlil qilish;

- Ularning turlari va tarkibiy elementlarini farqlash;
- Har bir jinoyat turining ijtimoiy xavflilik darajasini baholash;
- Qonun normalarini amaliy holatlarga to‘g‘ri tatbiq etish;
- Shaxsga qarshi jinoyatlarning oldini olish va huquqiy ongini shakllantirishda ishtirok etish.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga qarshi jinoyatlar nafaqat jinoyat huquqining asosiy tarkibiy qismi, balki ijtimoiy adolat, insonparvarlik, qonun ustuvorligini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish orqali fuqarolarda huquqiy savodxonlik, inson huquqlariga hurmat, jinoyatlardan holi muhit yaratish g‘oyasi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023 – 184b
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – asosiy normativ hujjat.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi – jinoyat ishlari yuritilishi tartibini belgilaydi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – jinoyat huquqining asosiy prinsiplari shu yerda belgilangan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenum qarorlari
7. M. Rustambayev. "Jinoyat huquqi (Maxsus qism)" – jinoyat turlarining tahlili.